



AHMAD YUGNAKIYNING "HIBAT UL-HAQOYIQ" ASARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QO'LLANILISHI

Ilmiy rahbar: Gaziyeva Maftuna Muhammadovna

Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mamajonova Tamanno Tohirovna

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada frazeologik birliklarning shakllanishi va o'rganilishi, "Hibat ul-haqoyiq" asarida iboralarning qo'llanilishi hamda asarda tutgan o'rni, vazifalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *frazeologiya, ko'chma ma'no, turg'un birikma, frazema.*

Frazeologiya tilshunoslik fani bo'limlaridan biri hisoblanadi. Bu bo'lim tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi. Frazema ko'chma ma'noli turg'un birikmadir. Frazeologiya til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldordir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topgan, obrazli, ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: tepa sochi tikka bo'ldi, sirkasi suv ko'tarmaydi va hokazo.[1]

Frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sh.Balli asos solgan. [2] Frazeologiyalarning grammatik, semantik, funksional – uslubiy jihatlarini rus tilshunolarining tadqiqotlarida ham ko'rish mumkin. Jumladan, V.Vinogradov iboralarni leksik qatlam sifatida ma'no guruhlariga ko'ra tasniflaydi.[3] V.Jukov esa frazeologizmlarning kategoriya va ma'nolarini aniqlagan.[4] Mustaqillik, istiqloq shabadasi boshqa fanlar qatori mamlakatimizda tilshunoslik fani ravnaqiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Mustaqillik davrida tilimizning frazeologik boyligini to'la qamrab oluvchi turli xil izohli lug'atlar, so'zliklar yaratishga alohida ahamiyat berildi. Masalan, Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining frazeologik lug'ati" (1992), M.Sodiqovning "Qisqacha ruscha-o'zbekcha barqaror iboralar lug'ati" (1994), Mahmud Sattorning "O'zbekning gapi qiziq" (1994), B.Yo'ldoshev, K.Bozorboyevning "O'zbek tilining frazeologik lug'ati" (so'zlik, 1998), Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedovlarning "Ma'nolar mahzani" (2001) singari leksikografik asarlar shular jumlasidandir.[5]

M.Xoliqovanning nomzodlik ishida til va tafakkur, dunyoning til kartinasi, antropomorfik omillarning tilga ta'siri kabi muammolarga oid hozirgi zamon tilshunosligida mavjud qarashlar va konsepsiyalar tahlil qilingan. Mazkur ishda ilk bor frazeologizmlarning milliy semantikasi, ekstralingvistik (milliy-madaniy, etnografik, geografik, tarixiy) omillarning frazeologizmlar semantikasiga ta'siri kabi muammolar rus va o'zbek tillari frazeologiyasi misolida o'rganilgan. [6] Abdimurod Mamatov "Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari" nomli monografiyasi (1991) va shu asosda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasida



o'zbek tilshunosligida ilk bor frazeologiyaning til normasi va nutq madaniyati bilan bog'liq muammolarini tadqiq etdi. Mazkur ishning so'nggi bobi "Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik norma va undan chetga chiqishning tiplari" deb nomlangan. [7]

Muallif mazkur qismda frazeologiyaga doir turli qarashlarni tanqidiy jihatdan ko'zdan kechirib, frazeologizmga quyidagicha ta'rif beradi: "Frazeologizm - bu tuzilishi jihatdan so'z birikmasiga yoki gapga teng bo'lgan, umumlashgan ma'no anglatadigan, leksik elementlari qisman yoki to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lgan, turg'un leksik-semantik birlikdir".[8]

Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarida ham frazeologik birliklar keng qo'llanilgan bo'lib, ularni quyidagi misralarda ko'rishimiz mumkin:

O'kushrak kishining **ichi g'adr** erur,

Ko'ni do'stung ersa toshi bil muni.

Ko'proq kishining ichi qora bo'ladi, chin do'sting bo'lsa, uning do'stligi yuzaki deb bil. Ushbu misradagi ichi g'adr birikmasi ichi qora ma'nosini bildirib kelgan. Ushbu iboraning frazeologik lug'atda yomon niyatli, boshqalarga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan kabi ma'nosi qayd etilgan.

O'qub so'zla so'zni eva so'zlama,

So'zung kizla kedin, boshing kizlama.

So'zni uqib so'zla, shoshib gapirma, so'zingni yashir, yaramas gaping tufayli, keyin boshingni yashirib yurma. Ushbu misralardagi kizlama so'zining lug'atda yashirmoq ma'nosini anglatishi qayd etilgan. Bu misradagi boshing kizlama iborasini boshni xam qilmoq iborasiga sinonim deb qarashimiz mumkin.

Tiril edgu fe'lin **ko'ngullar olib**,

Esizliktin o'zni sarangu solip.

Ushbu parchada ko'ngul olmoq iborasi ishlatilgan.

Ko'ngul bog'lamoq, bil xatolar boshi.

Dunyoning ko'rqli tashqi go'zalligini ko'rib, unga ko'ngil qo'yimoq (senga) xatoliklarning boshlanishidir. Ushbu misrada Ahmad Yugnakiyning dunyoga bog'lanib qolmaslikni, uning vaqtincha ekanligini, unga ko'ngil qo'yish xato ekanligi mazmunidagi fikri misralarda aks ettirilgan. Ushbu misradagi ko'ngil bog'lamoq iborasining frazeologik lug'atda sevish hissiga erk berish ma'nosi qayd etilgan. Yuqoridagi misralarda ham ana shunday ma'noda kelgan.

Neluk molg'a muncha **ko'ngul bog'lamoq**,

Bu mol kelsa arta borur boz kecha.

Buncha ham molga ko'ngil qo'yimoq ne kerak, bu boylik kelsa ko'payadi, ozayadi va yo'q bo'ladi. Bu misralarda ham ko'ngil bog'lamoq iborasi qatnashgan.

Biliksiz ne aysa ayur uqmatin,

Aning o'z til **o'z boshini yeyur**.

Bilimsiz kishi nima gapirsa, nodonligi sababli so'zlaydi, shuning uchun uning tili o'z boshini yeydi. Ushbu misralarda bilimsiz kishining nodonligi, o'ylamay gapirishi natijasida uning tili o'z boshiga yetishi haqida fikr keltirilgan. Boshni yemoq iborasi



frazeologik lug'atda mavjud bo'lib, yo'q qilmoq, halok qilmoq ma'nolarida kelgan. Misrada ham bu ibora nodon kishining tili uni yo'q qilib, halok qilishi mumkinligi ma'nosida qo'llanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sayfullayeva.R. Mengliyev.B va boshqalar. Hozirgi o'zbek tili. O'quv qo'llanma. – T.: «Fan va texnologiya», 2009. – B. 117.
2. Balli Sh. Французская стилистика. М.: Из-во иностр. лит-ры, 1961. –С. 89-90.
3. Грамматикой русского языка. Виногадов. 1952-1954 йй
4. Jukov A.V. Фразеологическая преходность в русском языке. Л.: ЛГПИ им. А.И.Герцена, 1984. –С. 25-31.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. -№ 3. – Б. 19-20
6. Халикова М.К. Фразеология как форма отражения национального менталитета в языковой картине (на материале русского и узбекского языков). АКД. – Ташкент, 1999. – 26 с.
7. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент:1991. – Б. 207-272; Маматов А.Э. Проблемы лексико-фразеологической нормы в современном узбекском литературном языке. АДД. – Ташкент: 1991. – С. 40-47.
8. Маматов А. Ўша монография, 210-бет